

## 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida Samarqand viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining o'ri, mazkur sohada iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

### 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalariga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

**Ma'lumot uchun: Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 12 958,6 mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 %ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati

• 102,9 %

Hajmning o'sishi

• 1 411,5 mlrd. so'mga

Xizmatlar hajmi

• 12 958,6 mlrd. so'm

**Ma'lumot uchun: Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.














Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**  
*(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)*

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>12 958,6</b>	<b>102,9</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	632,8	107,8
Moliyaviy xizmatlar	1 869,2	129,3
Transport xizmatlari	3 158,9	99,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 052,7	105,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	413,1	86,6
Savdo xizmatlari	3 808,5	102,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	293,6	89,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	677,1	111,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	197,9	101,0
Ijara xizmatlari	379,3	93,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	331,0	95,2
Shaxsiy xizmatlar	500,8	90,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	261,8	86,7
Boshqa xizmatlar	434,6	88,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 29,4 %ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlarida (24,4 %), moliyaviy xizmatlarda (14,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (5,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (4,9 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi


Eng yuqori ulush			Eng past ulush		
	Savdo xizmatlari	29,4 % 28,8 %		Boshqa xizmatlar	3,3 % 3,9 %
	Transport xizmatlari	24,4 % 24,9 %		Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,2 % 3,6 %
	Moliyaviy xizmatlar	14,4 % 12,5 %		Ijara xizmatlari	2,9 % 3,2 %
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	5,2 % 4,6 %		Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari	2,6 % 2,8 %
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	4,9 % 5,0 %		Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,3 % 2,6 %
	Shaxsiy xizmatlar	3,9 % 4,1 %		Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	2,0 % 2,4 %
				Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,5 % 1,6 %

 2019- y. yanvar-noyabr  
 2020- y. yanvar-noyabr

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,5 %ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar - 2,3 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hissasi 2,0 %ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlarda (29,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (11,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (7,8 %), savdo xizmatlarida (2,7 %) shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (1,0 %) qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da**



Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi sezilarli darajada (13,4 %ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (13,3 %ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (10,6 %ga), shaxsiy xizmatlar (9,4 %ga), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (4,8 %ga), shuningdek, transport xizmatlarida (0,9 %ga) pasayish kuzatildi.

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda - 24,4 %.

**Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi**




Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 96,6 %ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarida boshqa transport faoliyati esa – 3,4 %ni tashkil etdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida yo'lovchilarni tashish katta ulushga ega.



**Transport xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi**  
(2020- yil yanvar-noyabr oylarida)



2020- yil yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 70,8 %ga yetdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 29,2 %ni tashkil etdi.


Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Ma'lumot uchun: Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 29,4 %ni tashkil etdi, bu esa 3 808,5 mlrd. so'mga to'g'ri keladi.

### Savdo xizmatlari tarkibi

(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)



Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtinchi qismiga, aniqrog'i 76,4 %ga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 14,3 %ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 9,3 %ni tashkil etdi.



### Moliyaviy xizmatlar

(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 869,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi 1 444,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan.



**Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 14,4 %ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 12,5 %ni tashkil etgan.

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 425,0 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.**




**Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 29,3 %ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati 156,1 %ni tashkil etgan.

**Ma'lumot uchun: Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish va shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi**  
*(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)*



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 94,4 %ni tashkil etadi.	Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 3,9 % oralig'ida qayd etildi.
---	---

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,7 %ni tashkil etadi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 632,8 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 107,8 %ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 4,9 %ni tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 677,1 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,2 %ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,8 %ni tashkil etdi.




**Ma'lumot uchun: Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**  
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 86,6 %ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 413,1 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 3,2 %ni tashkil etdi.



2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 5,1 mlrd. so'mga kamaydi.

**Ma'lumot uchun: Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash** bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**  
*(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)*




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 81,4 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 18,6 %ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun: Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar**  
*(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)*

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 197,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,5 %ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,0 %ni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.


**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari**


2020- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 320,2 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,9 %ni tashkil etdi.





 Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

 Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.**

**Tel.: 66-230-45-34**